

Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi № _____
(Yon berish shartnomasi)

_____ “ ” _____ 20__ yil

(tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda “Yangi kreditor” deb nomlanadi) nomidan “ ” _____ 20__ yildagi № _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ filiali boshqaruvchisi _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda “Dastlabki kreditor” deb yuritiluvchi) bankning to‘liq nomi _____ Litsenziya (raqami va sanasi) _____ kungi № _____ Ta’sis hujjatlariga muvofiq joylashgan joyi _____ Bank nomidan ish ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan shaxs (FISH, lavozimi) _____ Vakolat beruvchi hujjat (nizom, ishonchnoma, sana va raqami) ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1 Yangi kreditor ushbu shartnomaga asosan dastlabki kreditor tomonidan qarz oluvchiga _____ INN _____ 202__ yilning “ ” _____ dagi № _____-sonli kredit shartnomasiga asosan ajratilgan _____ (_____) so‘mlik kreditning qoldig‘i _____ (_____) so‘mni dastlabki kreditorga to‘liq to‘lab berishi va undagi garov, sug‘urta, to‘lovi amalga oshirilmagan ustama foizlar bilan birga dastlabki kreditorning barcha huquqlari to‘liq yangi kreditorga o‘tkazilganligini tomonlar e’tirof etadilar.

1.2 Yangi kreditor dastlabki kreditorga qarz oluvchining qarz summasini o‘tkazib bergan kundan mijozni dastlabki kreditor oldidagi majburiyatlari bajarilgan deb hisoblanadi, ammo qarz oluvchining dastlabki kreditor oldidagi majburiyatlari ushbu shartnomaga asosan yangi kreditorga o‘tadi. Ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan dastlabki shartnomaning barcha shartlari o‘zgarishsiz qoldiriladi.

1.3 Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, yangi kreditor dastlabki kreditorga qarz oluvchining kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlari yuzasidan pul mablag‘larini to‘lab bergan sanadan qarz oluvchi yangi kreditor oldidagi barcha majburiyatlarini to‘liq to‘lab bergunga qadar amal qiladi.

2. Tasdiqlash va kafolatlar berish

2.1 Dastlabki kreditor yuridik shaxs bank faoliyatining subyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro‘yxatdan o‘tkazilgan, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy layoqatga ega.

2.2 Dastlabki kreditor mazkur shartnomani imzolash orqali qarz oluvchi talab qilish huquqini o‘tkazilishidan tegishli tarzda xabardor bo‘lganligini tasdiqlaydi;

2.3 Mazkur shartnomani imzolash vaqtida dastlabki kreditor yangi kreditorga mazkur shartnoma asosida o‘tkazilayotgan talab qilish huquqini tasdiqlaydigan barcha zarur hujjatlarni,

xususan, quyida ko'rsatilgan hujjatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida topshiradi:

- a) qarz shartnomasi hamda unga qo'shimcha tuzilgan kelishuvlarning tasdiqlangan nusxalari;
- b) kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalari;
- v) ta'minot bilan bog'liq hujjatlar;
- g) qarz oluvchining kreditor oldidagi qarz majburiyatining mavjudligi faktini va uning miqdorini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar.

2.4 Shartnoma tuzayotgan dastlabki kreditor xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarning to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emasligini kafolatlaydi.

2.5 Dastlabki kreditor bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning X bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan, cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).

2.6 Yangi kreditor bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning X bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1 Dastlabki kreditor shartnomani rasmiylashtirish jarayonida qarz oluvchidan kreditor o'zgarishiga yozma ravishda roziligi olinishini ta'minlaydi.

3.2 Yangi kreditor qarzdorning ssuda bo'yicha qarzini so'ndirish uchun _____ (_____) so'mni ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng 2 (ikki) bank ish kunidan kechiktirmay dastlabki kreditorning maxsus _____ hisob raqamiga talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish to'lov maqsadi asosida o'tkazib berish majburiyatini oladi.

3.3 Qarz oluvchining qarz yuzasidan majburiyatlari yangi kreditor tomonidan to'lab bo'lingach, shu kunning o'zida dastlabki kreditor qarz oluvchiga ochilgan barcha hisob raqamlarni yopishi va yangi kreditorga talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan huquqlarni amalga oshirilishi uchun hamma zarur ma'lumot va hujjatlarni berish majburiyatini oladi.

3.4 Kredit to'liq so'ndirilgunga qadar, kreditorlar qarz oluvchi bo'yicha zarur ma'lumot va hujjatlarni o'zaro almashinish majburiyatlarini oladilar.

3.5 Dastlabki kreditor yangi kreditorga kredit oluvchi tomonidan kredit ta'minoti sifatida taqdim etgan uchinchi shaxslar garov mulki va/yoki kafil, sug'urta polisi, bank kafolati mavjud bo'lsa, ulardan yangi kreditorlarning o'zgarishi munosabati bilan yangi kreditor oldidagi majburiyatlarni ham bajarilishi to'g'risida yozma roziliklarni taqdim etilishini ta'minlaydi.

3.6 Dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o'tkazilgan talabning haqiqiy emasligi uchun javob beradi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish

4.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

4.2 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

4.3 Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

4.4 Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

4.5 Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

5. Boshqa shartlar

5.1 Yangi kreditor dastlabki kreditor oldidagi majburiyatlarini to'liq bajargan taqdirda, dastlabki kreditorning kredit ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan garov, ipoteka, kafillik va boshqa shartnomalar bo'yicha barcha huquqlari to'liq hajmda yangi kreditorga o'tadi.

5.2 Taraflar tomonidan bir-biriga jo'natiladigan har qanday talabnoma, xabarnoma yoki boshqa xatlar yozma shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday talabnoma, xabarnoma yoki xat pochta, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada ko'rsatilgan faks raqamiga yo'llangan talabnoma va xabarnomalar lozim darajada jo'natilgan deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtdan ko'rsatilgan manzilda oluvchi shaxs yo'qligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham jo'natilgan, deb hisoblanadi.

5.3 Shartnoma bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

6. Bitimning kuchga kirishi, o'zgartirish va bekor qilish tartibi

6.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi dastlabki kreditorda, ikkinchi nusxasi yangi kreditorda saqlanadi.

6.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

6.3 Shartnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

7. Maxfiylik

7.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

7.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

7.3 Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

7.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

7.5 Kreditor o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida qarz oluvchi kreditorga qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

7.6 Qarz oluvchi kreditorga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan qarz oluvchining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kafil va yoki mulkiy kafil bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish qarz oluvchining qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo'lib hisoblanmasligiga mazkur shartnomaga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

8. Fors-major

8.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

8.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

8.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

9. Nizolarni hal qilish tartibi

9.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

9.2 O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

9.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

9.4 Kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda filial/bo‘linma joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

10. Taraflarning qayd etish ma’lumotlari va imzolari

Yangi kreditor

Manzili _____

MFO _____ INN _____

x|r _____

Bank _____

Telefon _____

Aloqa markazi 0 800 1 200 200

E-mail: contact@hamkorbank.uz

Bank vakili _____

Dastlabki kreditor

Manzili _____

MFO _____ INN _____

x|r _____

Bank _____

Telefon _____

Rahbari _____

Bosh hisobchisi _____

M.O‘.